

ONA TILI O'QITISH METODIKASINING METODOLOGIK ASOSLARI

Abduvaliyeva Durдона Muqimjonovna

Asaka tumani 10-umumiy o'rta talim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada muallif tomonidan ona tili o'qitish metodikasining metodologik asoslari taxlil qilindi.

Kalit so'zlar: Metodologiya, ona tili o'qitish metodikasi, til, leksika, grammatika.

Аннотация: В статье автор проанализировал методические основы методики преподавания родного языка.

Ключевые слова: Методика, методика преподавания родного языка, язык, лексика, грамматика.

Annotation: In the article, the author analyzed the methodological foundations of the mother tongue teaching methodology.

Key words: Methodology, mother tongue teaching methodology, language, vocabulary, grammar.

KIRISH

Metodikaning amaliy ahamiyati o'quvchilarning til boyligini har tomonlama to'liq bilib olishlarini ta'minlashdir. Buning uchun biz quyidagilarni yodda tutushimiz lozim: til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir; tilsiz jamiyatning yashashi mumkin emas; tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi; maktabning vazifasi tilni aloqa-kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi. Til oqilona, mantiqiy bilish vositasidir; til birliklari va formalari yordamida bilish jarayonida umumlantirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshiriladi; til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi; biz fikrni nutqda shakllantiramiz; tilni egallash va nutqni o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sadi. Amaliyot kishi bilimining manbai va harakatlantiruvchi kuchi, haqiqat mezon va bilim tojidir. Analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan umumiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida og'zaki va yozma tarzidagi jonli nutqiy aloqaga, to'g'ri talaffuzga o'tadilar. Ular kuzatish jarayonida bilib olgan, uzlashtirgan qoidalarini amaliyotga tatbiq etadilar. Metodika bilish nazariyasidan tashqari, yangi fanlar, xususan, psixologiya, pedagogika ma'lumotlariga tayanadi. Pedagogik psixologiya bilimlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini, ko'nikma va malakalarning shakllanish jarayonini tekshiradi. Metodika psixolingvistika bilan ham bog'liq. Metodikaga psixolingvistika nutq haqida, uni talab qiluvchi sabablar, nutq turlari, nutqni qabul qiluvchi signallar va

boshqalar haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, metodika, didaktika, umumiy pedagogika bilan o'zaro bog'liq. Ona tili o'qitish metodikasi ona tilning ma'lum qismini amaliy, ma'lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi. Shuning uchun ona tili - lingvistik metodikasining muhim asosi hisoblanadi. Savod o'rgatish metodikasini ishlatishda fonetika, fonologiya, grafika asos bo'ladi. Lug'at ishini tashkil etishda leksikologiya, so'z tarkibi, so'z yasallishini o'rganishda so'z yasallishi, etimologiya, grammatika asos bo'lsa, morfologiya va sintaksis til qurilishi haqida tushuncha hosil qilishda, to'g'ri yozuvga o'rgatishga orfografiya nazariyasiga asoslanadi. O'qish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi. Chunki o'quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahlil qiladilar. Boshlang'ich sinflarda adabiyotshunoslikdan nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo metodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini va uning o'quvchilarga ta'sirini ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning g'oyaviy mazmuni, uning mavzusi va mazmunini, qurilishi, janri, tasvirik vositalarini hisobga olish zarur. O'quvchilarga ona tilni o'rgatish, ularni tarbiyalash, har tomonlama o'stirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Bu tamoyillar umumdidaktik tamoyillardan tashqari tamoyillar bo'lib, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi o'quv mehnatining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Ona tili o'qitish tamoyillari 5 ta:

1. Til materiyasiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsa-da, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshtuv va ko'ruv kursatmaliligini ta'minlashni va nutq organlarini mashqlantirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni ichida, gapirishni) talab etadi.

2. Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish printsipli. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqea-xodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning xamma tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, stilistika)ni o'zaro bog'langan xolda o'rganish xisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan xoldagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasallishiga suyanadi va x.q. So'zni morfemik tomondan taxlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning xamma tomonlari bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta xisobga olish kerak.

3. Tilga sezgirlikni o'zlashtirish prinsipi. Til - juda murakkab xodisa, uning tuzilishini, sistemasini faxmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib uni yo'dda saqlab bilmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til xodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi : tilni egallash mumkin emas.

4. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madannyati vositalarining xabar berish funksiyasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodalilik (uslubga oid) funksiyasini tushunishni, mazmuninigina emas, balki so'z va nutq oborotlarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy ottenkalarini ham tushunishni kuzda tutadi. Bu tamoyilga amal kilish uchun, birinchn navbatda, badiiy adabietlardan, shuningdek, tilning funktsional-stilistik xususiyatlari anik ifodalangan boshka matnlardan foydalanish talab etiladi.

5. Ogzaki nutkni yoema nutkdan oldin o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil xam kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi.

XULOSA

Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofik; faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishini tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". T. Ma'naviyat, 2008 y.
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T., "O'zbekiston"., 2000 y.
3. Karimov I.A. "Barkamol avlod orzusi". T., "Sharq"., 1999 y.
4. Davlat Talim Standartining boshlang'ich ta'lim o'quv dasturi (yangi tahrir) 2010y